

AHMAD YASSAVIY «DEVONI HIKMATLAR»IDAGI INSONNING MA'NAVIY QIYOFASI HAQIDAGI QARASHLARDAN FOYDALANISH.

JDPI Umumiy pedagogika kafedrası
katta o'qituvchisi Muxammadiyeva S
Talaba: Xolmatov N.P.

Annotatsiya. Mazkur maqolada tarbiyaning tarixiy ildizlari, yurtimizda inson ma'naviy-axloqiy tarbiyasi muammosi bo'yicha olib borilgan izlanishlarda ilgari surilgan g'oyalar, xususan Ahmad Yassaviyning insonparvarlik g'oyalarining bugungi kunda yoshlar tarbiyasidagi ahamiyati to'g'risida fikr yuritiladi.

Kalit so'zlar: pedagogika, ta'lim, tarbiya, axloq, insonparvarlik, halollik, nafs tarbiyasi, ma'naviy meros.

Ahmad Yassaviyning dunyoqaraShi uning "Devoni hikmat" asarida bayon qilingan. "Devoni hikmat" turkiy adabiyotning noyob yodgorliklaridan biri bo'lib, muallifning islom dini, kalom falsafasi, va tasavvuf bilan emas, balki o'Sha davr ijtimoiy tartiblari, dehqonlar, chorvadorlar va hunarmandlarning hayotini juda yaxshi bilganligidan daloat beradi.

Yassaviy ushbu hikmatlarida tasavvufni, tariqatni turkiy qavmlar uchun tushunarli tarzda, sodda uslubda bayon qilish, ularga singdirish yo'lini tanlagan.

"Ahmad Yassaviy, - deydi professor Najmiddini Komilov, - Qur'on hikmatlari, hadislar mazmunini va tasavvuf g'oyalarini qo'Shib kuylagan. Uni insofu-adolat, halollik va to'g'rilikni oriflik, oShiqlik, xilvat va uzlat bilan bog'lagan. U birinchi bo'lib tasavvuf g'oyalarini turkiylar orasiga yoyib, nafs va xudbinlik kabi ko'pgina yomon illatlarni qattiq tanqid qildi"¹.

Darhaqiqat, diniy motivlarda yozgan hikmatlarining "hujayralarida" ham, adolat, to'g'rilik, halollik kabi "yer ishlari" bilan bevosita bog'langan mavzularidagi She'rlarida ham tasavvuf falsafasining zarralari sezilib turadi.

Tariqat va Shariat. Shariat bilan tariqat orasidagi masala g'oyat nozik masaladir. Bu jihatni anglamagn odam biror tomonga putur yetkazishi mumkin. Chinakm musulmon bo'lgan, islomni chuqur anglab, uning ma'rifati, Hikmat va falsafasidan baqramand bo'lgan, musulmonlikni Alloh yodida pok yaShaSh deb bilgan kishi hech qachon tariqatni o'ziga yot bilmaydi. Musuomonlikni faqat rasm-rusmlar, odatlar va boShqa taShqi belgilar yig'indisi deb biluvchi kishi uchun, turgan gap, tariqat mavqum va qatto zararli narsa bo'lib tuyo'ladi. Shariat aqlining hammasi ham tariqat bilan kuraShib kelmagan. Ko'pgina Shariat peShvolari tariqat aqliga hurmat bilan haraganlar, Shayxlar bilan do'stlaShganlar.

Ammo muxolifatning boSh sababi Zohidlar, «osoyishta» so'fiylar Shariat aqlini unchalik bezovta kilmaganlar. Shariat aqliga taShvish keltirgan narsa – bu tasavvufning fano, tavqid, ishq va vasl kabi g'oyalari edi. Ularning goyasi zoqiriy bilim bilan cheklangan odamlarga yoqmasdi. Boz ustiga, Haq ishqida bequdu devona bo'lgan valiylarning «Shatqiyot»lari, Ya'ni «kufr» bo'lib ko'ringan gaplari (chunonchi, Qallojning: «Analhaq», deyishi, Boyazidning

¹ N.Komilov. Yassaviy. "Xalq so'zi", 1993, 6 avgust.

«Sharaflanganman, Sharaflanganman, Shanu Sharaf menga» degan gapi, MaShrabning «Yorsiz ham bodasiz Makkaga bormoq na kerak, BoShimga uruyinmu Ibroqimdan qolg'on ul eski do'konni» deyishi) tabiiyki aqidabarast kishilarni taShvishga solar va ular buni iymondan chekinish deb baqolardidar.

Ibn Javziy tasavvuf tarixini ikki davrga bo'ladi. Birinchisi – Zohidlik davri bo'lib, u davrda sufiylar Shariat talabalariga qat'iy rioya qilganlar. Ikinchisi – darveShlik davri bo'lib, bu davrda fikri Shuurda islom aqidalariga to'g'ri kelmaydigan qaraShlar yuzaga kelgan, tariqat qabul qilgan rasm-rusumlar ham islomda yo'q edi, deydi Javziy. Chunonchi xirqa kiyib aloqida jamoa bo'lib yurish, raqsu samo' majlislari taShkil qilish, kuy-qo'Shiq eShitish, chilla o'tirish, zikr tuShirish va qokazolar islomga xilof. Shuning uchun tasavvufga ular bilimsiz, nodon kishilar degan ayb qo'yiladi. Lekin bu noto'g'ri ekanligini Najmiddin Kubro, Ahmad Yassaviy, Baqouddin NaqShband, Xoja Axrori vali kabi ulug' Shayxlar misolida ko'rishimiz mumkin, ular Shariat ilmini suv qilib ichgan odamlar edi. Ularda bundan taShhari Yana botiniy-ilohiy ilm ham jo'Sh urib turgan. Ana Shu fazilat bilan ular oddiy dindorlar, muxaddisu mufassirlardan ustun edilar.

Aslida tariqat aqli Shariatni inkor etmagan. Aksincha, Shariat ma'naviy tarbiyaning birinchi bosqichi qisoblangan. Suluk yo'liga kirgan kishi to'rt buyuk maqomni bosib o'tishi lozim, Ya'ni: Shariat, tariqat, ma'rifat va tariqat.

Yana deydilarki, Shariat – Rasulullohning aytganlari, tariqat – Rasuli akromning siyrati, qilgan ishlari, haqiqat – Rasullulloqko'rganni ko'rish. Yana quyidagi ta'rif maShqur : Shariat- ommaning dini, iymoni. Tariqat – xoslarning yo'li. Haqiqat – avliyolar iymoni. Atoqli olim Xusayn Voiz KoShifiyning qiyosi ham ibratli. «Futuvvatnomai sultoniyy» kitobida u yozadi: «Agar Shariat, tariqat va haqiqat orasida nima farq bor, deb so'rasalar, har uchulasi o'zaro vobasta deb javob Ber.

Shariat – ravShan bilingan narsalardir, nishondir, hurmatdir. Tariqat – qidirilgan narsalar, bayondir, xizmatdir. Haqiqat – ko'rish uchun kuraShish, ayondir, Hikmatdir»².

Ahmad Yassaviy ham tariqat va Shariatning uzaro vobastaligini soda turkona tilda ravShan bayon qilib bergan:

Har Kim qilsa tariqatni da'vosini,
Avval qadam Shariatga qo'ymoq kerak.
Shariatning ishlarini ado qilib,
Andin so'ngra bu da'voni qilmoq kerak.

U tariqat yo'li og'ir va maShaqqatli ekanligini ham ta'uidlaydi:

Shariatdan murod – yo'lga kirmoq,
Tariqatdan murod – nafsdan kechmoq.
Haqiqatdan murod – jondan kechmoq,
Jondan kechmay ishq Sharobin ichsa bo'lmas.

Tasavvufning nazariy va amaliy tomonlari bor. Amaliy tomoni bevosita Ollohga erishuv jarayonidir. Bu yo'lda sufiylik koidasini bajargan holda juda

² Xusayn Voiz Koshifiy. Futuvvatnomai sultoniyy. T.: 15-b.

ko'pchilik tasavvufga ishonganlar, maShgul bo'lganlar. Bu jarayonda Shayxlar va muridlar paydo bo'lib, sufiylikka berilganlar Shayxlardan ta'lim olganlar, ularga murid bo'lib tuShganlar.

Yassaviyning dunyoga nazari, bizning davr kishilarinikiga nisbatan boShqacha Shakllangan. Shoirning ishq, haqiqat, adolat, qanoat, diyonat singari masalalarga yondaShishi o'zgacha yunalishlarda kechganligi ham Shubhasiz. U o'z davri farzandi sifatida islom dini ko'rsatmalari va islom aqidalariga tayangan. Buni uning o'zi ham e'tirof qilgan. Shoir hikmatlarining birida bunday satrlarni o'qiymiz:

XuShlamoydur olimlar bizni oyg'on turkini,
Oriflardin eShitsang, ochar kungul mulkini.
Oyat, hadis, ma'nosi turki bo'lsa muvofiq,
Ma'nisiga yetganlar, yerga qo'yar bo'rkini.

Adib komillikka erishishning yo'li har qanday nafsdan ham parhez qilishda ekanligini ta'kidlab, nafs yo'lga kirmaslikni maslahat beradi. Shu bilan birga har qanday maqsadga erishish yo'lida mehnat qilish lozimligini alohida ta'kidlab o'tadi.

Yassaviyning iymon - e'tiqodga chaqiruvchi g'oyalari yoshlar tarbiyasida muhim manbalardan biri bo'lib hisoblanadi.

Ahmad Yassaviy ijodiyotining mag'zini isyonkorona mistik mazmunlar taShkil qiladi. U behudaga "G'arqob bo'lib isyon ichra qoldim ma'no", demagan. Uning isyoni-Inson botinadigan isyon. Bertran Rasselning "Mistisizm va mantiq" maqolasida yozilishicha, dunyoni mistik tarzda idrok etishda donishmandlikning Shunday bir unsuri mavjudki, unga boShqa vosita bilan erishib bo'lmaydi. Mana Shu "donishmandlik unsuri". - "Xudo oily haqiqat. Unda hamma-hammasi mukammal, musaffo va go'zal. Uning adolati parchalanmas. QaraShlari ziddiyatsiz " deganday mantiqlarni aks ettirgan. Miskin Shoirlarning g'oyaviy yo'llarini, Shartli ravishda, vujudi mutlaq bilan "suhbat" yo'li deb ataSh mumkin. Chunki ularning butun diqqat-e'tiborlari muqaddas Ruhga qaratilgan. Ular faqat xudo ishini tan oladilar.

Bunday muhabbat odamdan favqulodda ko'ngli poklik va nafs ehtiyojlaridan ozod bo'lishni - talab qiladi. Mistik oShiqning bitta ibratli xususiyati-o'z o'ziga murosasizligi. Uningcha, Shuxlik va gunohlarni bekitmoq ishqqa xiyonatdir. Bugina emas, "tog'dan og'ir" yozuqlari uchun uni hatto "tog'i toShlar" ham so'kmog'I ehtimoldan yiroqmas. Shuning uchun u "Ishq yo'lida jon berganni armoni yo'q", degan tushunchalarni e'tiqod Shiori bilib, ma'naviy ruhiy tozalanish ranju jafolarini bo'yinga olmog'i shart. Bu haqida Yassaviy shunday o'git berdi:

Jafo chekmay oShiq bo'lmas, tingla g'ofil,

Jafo chekib sobir bo'lg'on bo'lg'on bo'lmas johil.

demak, jafo chekib oshiqlikka etishish, birinchidan, g'ofillikni haydaydi. Ikkinchidan, johillikka yo'l qo'ymaydi. G'aflatdan qochish-faol tasavvurlarga keng yo'l ochadi. Bu orqali ilohiy bo'lsa-da, mohiyat axtariladi. Mohiyat izlayotgan Shaxs, tabiiyki, atrof- muhitda sodir etilayotgan voqea-hodisalarga befarq qarolmaydi.

Xudovando, meni solg'il o'z yo'linggo,

Nafs ilgida xarob, ado bo'lbum mano.
Fisqu fujur to'lib-toShib, haddin oShti,
G'arqob bo'libisyon ichra qoldim mano.

Yassaviy "xudo yo'lini" –"nafs ilgi"dan qutulmoq, atrofda to'lib-toShgan fisqu fujurlarga barham bermoqning yo'lini izlaydi. Agar diqqat bilan muShohada yuritilsa, Yassaviyning diniy-axloqiy falsafasida dunyodan yuz burilmaydi. Yomonlik, nodonlik, jaholat, molparastlikillatlariga rivoj bergan tuban dunyoni yurakdan quvishga da'vat etiladi. Shu ma'nolarda Shoir so'zlari inson qalbida g'alayon qo'zg'aydi. "Nohaq da'vo qilg'on" qozi, imomlar,"xarom egan hokimlar", "dunyo mening" deb "jahon molin" yiqqan guShna amaldorlar, "Oqni qaro qilg'on" mullo-yu, Mudarrislar, el ustiga minib elib "totlig'-totlig" eb, "turlik-turlik kiygon" larga qarShiko'ngulda nafrat uyg'otadi.

Bu qaydlardan "Yassaviy mazlumlar tomonida turib fikran kuraShgan Shoir bo'lgan ekan-da", degan xulosalar chiqarilmasligi kerak. U garchi,

"Yetimlar bu jahonda hor ekandur,

G'ariblarni ishi duShvor ekandur",yoki:

"G'ariblarni ko'rgon yerda og'ritmangiz,

G'ariblarga ochig'lanib so'z qotmangiz.

Zaif ko'rub g'ariblarga toSh otmangiz,

Bu dunyoda g'aribliktek balo bo'lmas",-

singari misralarida "ko'ngli qattig' xaloyiq"ni Shavqatga va g'arib, yetim mazlimlarga ozor etkazmaslikka chiqargan bo'lsa-da, feodal jamiyat ivakillari qo'l ostida ezilgan mehnatkaShlarning haq-huquqlari uchun kuraShmoqni o'z oldiga g'oyaviy maqsad qilib qo'ymagan. Ahmad Yassaviy o'zi bilan o'zi beomon kuraShadiganlar ijodkori sifatida juda e'tiborli. U odanga o'z-o'zini kechirmaslik sirlarini o'rgatadi. Shoir o'z qalbida eng chuqur joylariga nazar taShlaShni targ'ib etadi. Shuning uchun ham uning axloqiy e'tirozida Shaxsning ma'naviy, ilohiy kamolotiga to'siq bo'ladigan insondagi salbiy hususiyatlar tahlili tabbiy ravishda izchillanib borgandir. Yassaviydagi samimiyat-oShkoralikda. Ba'zan undagi oShkoralik talablariga chidaSh muShkul. Buni badbinlik deb anglaSh noto'g'ri. Yassaviy hikmatlarida badbinlikmas, g'amginlik, ma'rifatli ruxni suyaydigan dard va faryod borki, ular insonning hissiyot fojialarinierta anglaShga xizmat qiladi.Yassaviy hikmatlaridagi markaziy obraz-olloh. U xudo ishq, Ya'ni ishqiy ilohiyini tan oladi. Navoiy "Mahbubul-qulub"da ishqni uch qismga ajratib,uchunchisini "haqguylar ishq bo'lib,ular haqning jamolini ochiq ko'rish umidi bilan yaShaydilar va Shuning bilanmatlubdirilar",-deydi.Yassaviy:

"Ishq yulida kecha- kunduz yig'lagonlar,

Jondin kechib belinmahkam bog'log'onlar.

Xizmat qilib haq sirini anglog'onlar

Tun uyqunixarom qilibnolon bo'lur",-

Kabi poitik e'tiroflarida ollohni tanish va uning ishqini idrok qilish extiroslarida o'rtangan oShiqlarni nazarda tutgan.U Shu oShiqlarga "ishq sirrini bayon"qiladi.Bu sirning muShohadasiga berilgan oShiq,avvalo,"haqiqatni ma'nosigaetgan kishi".U "kecha-kunduz ishq" istaydi."Bir soat ham haq yodidan

g'ofil"lik yuq unda.U iymonda sobit. Uningcha, " Tan so`zlamas, jon so`zlamas, iymon so`zlar ". Yassaviyni iymoni so`zlatgan. Iymon tili bi lan muhabbatni ulug`lagan ijodkor deb baholasak xato qilmagan bo`lamiz. Chunki Yassaviy hikmatlarini Diyonat ziyosi va iymon Shafqati ichdan nurlantirib turadi. Olloh qahru g`azablaridan qo`rqmay odamlarga ranj yetkazib, bechoralarning ko`zlaridan yoshlar oqizuvchi iymonsizlar deb qaraganda o`Sha zulmkorlarni o`zicha bir faollik bilan aytmagan. Uning nuqtayi nazari bo`yicha na musulmon na kofir hech birovga ozor bermaslik Shartdir:

Sunnat ermish, kofir bo`lsa, berma ozor,
Ko`ngli qottig` dilozordan xudo bezor.

Ulug` rus yozuvchisi L.N.Tolstoy kundaliklarida " Hamma ishimni yolg`izlikda, Xudo bilan hal qilishim Shart", -deb yozgan ekan, mistik Shoirlarda, jumladan,A.Yassaviyda ham mana Shunday "yolg`izlanish"qariyb doimiy holat va fikriy birlik jarayoni bo`lgan.Yassaviy mistikasining yorug`lik manbai-rux yolg`izligida u xudoga juda yaqin. Shu bois u "Jondan kechib,moldan kechib g`arib bo`lsam,biyobonda yolg`iz kezib nola qilsam ", degan orzularni bayon qilgan. Shunga ko`ra, uning kuraSh haqidagi falsafiy qaraShlari ham boShqacha.

U inson hayotidagi katta kuraSh - nafsni taslim etishga xizmat qiladigan kuraSh deb hisoblanadi. Nafsga mag`lub Shoh-qul, nafsdan ustunlikka erishgan g`arib -Shohdir. Mana,Yassaviy dunyoqaraShidagi tayanch nuqtalaridan bittasi. Ibn Sino ruboiylaridan birida:

"Dunyo, mansab dema, uchma ishvaga,
Do`stlardan ajrab ham yov boShiga yet",-

deydi. Bunda Shoir nazarda tutgan yov-nafs. Alloma har nimadan, hattoki,d o`stlikdan ajrab bo`lsa ham Shu g`animning boShini yanchishga undagan. Shu ishni amalgam oShira olgan kishining g`ururi va insoniy qadr qimmatini hech kim poymol qila olmaydi. Navoiy aytmoqchi, nafsga tobe bo`lib duShmanni band etmoq mardlik sanalmaydi. Uni engish esa chinakam Shijoatdir.

Bo`lib nafsingg`a tobi`, band etarsan tuShsa duShmanni,
Senga yo`q nafsdek duShman,qila olsang ana qil band.

Yassaviy hikmatlarining katta bir qismi ayni Shu masala talqinlariga bag`ishlangan. Uning ta`rifiga binoan,nafs "yabon quShdek qo`lg`a qo`nmas" bir narsa. Bu "quSh"o`z xohishicha "parvoz" etaversa,odamni kundan- kun to`g`rilikdan ozdiraveradi. Oqibatda esa:

Nafs yo`lig`a kirgon kishi rasvo bo`lur,
Yo`ldin ozib, toyib, to`zub gumroh bo`lur,
Yotsa-tursaShayton bilan hamroh bo`lur...

Shoir nafs bandalariga qarata, "Nafsni tebgil, nafsni tebgil, ey badkirdikor", deb murojaat etadi. Va:

"Nafsim mani yo`ldin urib xor ayladi,

Termultirib xaloyiqqamani zor ayladi",-

deya nafs uchun "itdek kezib"yurganlarini ham sir saqlamaydi. Xullas, Yassaviyning xulosalari Shuki, nafs- ichki, lekin juda katta duShman. U insondagi butunlikni sindiradi. Uning amirlaridan ma`naviy osoyishtaliklar barham topadi.Shu bois "Nafsni tepib mehnat etsa rohat"anglanmog`i kerak. Yassaviy

hikmatlaridagi bu g'oyaviy yo'nalish Alishir Nanoiy She'riyatida yanada keng miqyoslarda yangi yangi ifodalar bilan rivojlantirilgan. Navoiy qo'yidagi satrlari Shu jihatdan harakterlidir:

Nafs amrida har nechaki tolping'aysen,
Ko'p garShi butunlik tilasang, sing'aysen.

Kom istayu necha elga yoling'aysen,
Nafsing'ga xilof aylakim tang'aysen.

Ma'nan, ruhan, axloqan kamol topgan inson, nafsning quliga aylanib qolmaydi, ta'magirlik qilmaydi, yeb-ichishni, boylik to'plaShni hayotningmazzuni, yaShaShdan maqsad deb tushunmaydi. Bunday inson olam sir-asrorlaridan xabardor bo'ladi, o'zi va o'zgalarni xurmat qiladi, qadrlaydi, o'zligini anglab yetadi, milliy tili, tarixi, madaniyati, urf-odatlarini, qadriyatlarini yuksak darajada e'zozlaydi, ular bilan faxrlanadi. Ruhiy-ma'naviy boylik insonni behad go'zallaShtiradi va ayni paytda uni yomon xislatlardan qutqaradi, noto'g'ri yo'ldan qaytarib to'g'ri yo'lga bo'Shlaydi, adolat uchun kuraShishiga, xalq yo'lida kamarbasta bo'lishiga da'vat etadi.

Inson vujudi, amaliy faoliyati, fe'l -atvorida ruhiy-ma'naviy tomonlar keyinga surib taShlanib, bema'ni hislar va nafs lazzatlariga berilishi g'oliblik qilsa, unday inson nafs tuzog'iga ilingan, nafi esa uning eng xatarli duShmani, ichidagi g'animga aylangan bo'ladi. Agar nafs to'xtovsiz rivojlanib boraversa, unga vaqtida qarShilik qilinmasa, u kishini kundan-kunga to'g'ri yo'ldan ozdiraveradi, rasvoi-jahon qiladi. Hoja Ahmad Yassaviy ta'biricha, "nafs yo'lga kirgan kishi rasvo bo'lur, yo'ldan ozib, toyib, tuzib gumroh bo'lur. Yotsa, tursa Shayton bilan hamroh bo'lur..."

Nafsiga erk bergan kishi, Sharq musulmon falsafasida qayd etilishicha, behisob azob-uqubat, kulfatlarga giriftor bo'ladi. Nafsiga erk berib, mol-dunyo to'plaShga berilib ketgan, o'zgalarni uylamaydigan, bo'Shqalar taShvishi bilan kuyib yonmaydigan odam odamiylikdan chiqishi natijasida el-yurt e'tiboridan chetda qoladi. Nafs hakim bo'lgan kungillardan ruh-ma'naviyat chekinadi. Kungil butunlay nafs diyo riga aylanadi. Bu kungil hech kimga yaxShilik keltirmaydi. Barcha razilliklaru zuravonliklar, barcha insofsizliklaru makru hiylalar va oqibatsizliklar, bularning hammasi nafs tufaylidir, nafs bandasi bo'lib qolishning oqibatidir. Nafs - hiylakorlikning, quvlik - Shaytonlikning, uchiga chiqqan makkorlikning asosidir.

Odanni oziq-ovqat, kiyim-kechak bilan ta'minlaSh mumkinu, ammo nafsiga erk bergan, ochofat kishining ko'zini mol-dunyoga tuydirib bo'lmaydi. Hadisi Sharifda aytilishicha, "Insonga bir vodiy tula molu dunyo berilsa, u ikkinchi vodiyning ham berilishini hohlaydi. Ikkinchidan keyin uchin-chisini va hokazo, uning nafi tuymaydi. Insonning ko'zini faqat tuproq (qabr tuprog'i) tuydiradi... Bandaning molu dunyoga qo'ygan hirsu ikki och bo'rining quy podasiga qilgan tajovuzidan ko'ra zararliroqdir. Zero, bu bilan uz dini-iymoniga putur yetkazadi".

Insonni ma'naviy, axloqiy jihatdan bezaydigan ajoyib fazilatlardan biri - halol, pokiza yaShaSh, birovlarning xaqiga zarracha bo'lsada hiyonat qilmaslikdan iboratdir. "Turkiston mulkining Shayxul maShoyixi" Hoja Ahmad Yassaviy e'tiqodicha, "Xaq yo'lga kirib bo'lmas pok bo'lmasdan".

Halol bilan haromni farqlash, faqat o'z mehnati evaziga tirikchilik qilish, harom - harishdan jirkanish, haromxurlikni eng katta gunohi azim va ahloqsizlik deb bilish - bular Sharq faylasuflarining eng muhim g'oyalaridan bo'lib hisoblanadi. Sharqning buyuk faylasuflari, birinchi navbatda diniy al-lomalar, Shayxlar, sufiylar halol yeb ichib, pokiza yaShashni targ'ibot, taShviqot etibgina qolmasdan, bu masalada o'zlari Shaxsan namuna ham bo'lganlar. Ilmiy va diniy allomalar harom taomni yoqtirmaganlar, ko'plari hatto Shoxu amirlarning tuhfasini ham qabul qilmaganlar va boy-amaldorlarning mol-mulkini harom deb e'lon qilganlar. Qo'lidan ish keladigan har bir olimu-fuzalo, sufiyu-Shayx foydali mehnat bilan Shug'ullangan, faqat o'z mehnati bilan topilgan nonni halol deb bilishgan. Masalan, Ahmad Yassaviy dehqon bo'lgan, Shayx Ibrohim Ozariy g'isht teruvchi, Shayx Bannon hammollik qilgan, Shayx Abulhasan duradgorlik bilan Shug'ullangan, Bahovuddin Naqshband kimxobga gul naqshlagan, Bahovuddinning piri Sayd Kulol kulolchilik qilgan va paxsa urgan. Shayxlar va ulamolar atrofidagi darveshlar, Shogirdu muridlari ham birgalashib qurg'on qurganlar, vaqf yerlarni ishlaganlar, bog'dorchilik, chuponlik bilan Shug'ullanganlar. Ularning hammasi tasavvuf falsafasining "luqmai halol" qoidasiga qat'iy amal qilganlar.

Yassaviy shaxsi va uning axloqiy qarashlari haqida Abdurahmon Sa'diyning quyidagi fikrlarini keltirish mumkin: "Yassaviy rasmiy odatiy ibodat kishisi emasdir. Ul chin vijdoniy odamdur. Muhiddin binni Arabiy, G'azzoliy kabi hayotni, xoliqni, o'zini, boShqasini, jannatni, jahannamni faqat o'z vijdonida, o'z ko'ngli ichida ko'rguvchi „birlik“ fikrida tamom foniy bir odamdur. Ul o'z qalbida va boShqalarning yuraklarida farishtalik martabasiga erishkan bir ezgulik tuyg'usi tug'dirishqa elkingan bir darveshdur... Yassaviy esa Shular sifatida turg'uvchi fidoyilarning va foniylarning va foniylarning biridir.

Yassaviy o'z zamonida va o'z muhitidagi butun yomonliqlarga, ijtimoiy va axloqiy butun yomonliqlarg'a, kamchiliklarga qattig' hujum etkuvchi, ularga qarshi Shiddatli kuraSh va uruSh e'lon qilib, butun umri da Shularg'a o'zining keskin va ochig' She'rlari ila Shafqatsiz ravishda o'q otub turguvchi ijtimoiy va axloqiy bir qahramondur. Ul bu tog'rida ba'zilarga zaharli o't o'tsa, ba'zilarni toSh bilan uradir.

Ul adolatsizlikka tamom dushman edi. Zolimlarni, buzuqlarni hech bir ayamadi, hatto yo'ldan chiqq'on mulla va xo'jalarni, mufti va qozilarni, Shayx va eShonlarni, yolg'on olimlarni va xususan, so'finaqaSh bo'lg'on odamlarni, to'la, amirlarni, vazir va podShohlarni ham hech birisin rioya qilmaydi"³.

Yassaviyning eng yomon ko'rgan narsalaridan biri nodonlik bo'lgan. U nodonlarni va johillikni qoralab Shunday Shunday yozadi:

Nodon bilan o'tkan umring nori saqar,
Nodon borsa, do'zox andin qilg'ay xazar...
Nodon bilan do'zox sari qilmang safar,

³ Yassaviy kim edi. Nashrga tayyorlovchi B.Do'stoqrayev. T.: Meros, 12-13-b

Nodon ichra xazon yanglig` so`ldim mano!
Yer ostig`a qochib kirdim nodonlardin,
Ilkim ochib, duo tilab mardonlardin.
Tama` qilma nodonlardin, qadring bilmas,
Zulmat ichra yo`l adaShsang, yo`lg`a solmas.
Avval, oxir xo`blar ketdi, qoldim yolg`iz,
Nodonlardin eShitmadim bir yaxShi so`z.
Dono ketdi, nodon qoldi, yedim afsus,
Yo`lni tobmay, hayron bo`lub qoldim mano!

Duo qiling, nodonlarning yuzin ko`rmay,
Haq taola rafiq bulsa, birdam turmay.
Bemor bo`lsa, nodonlarni holin surmay,
Nodonlardan yuz ming jafu ko`rdim mano,
Ae do`stlar nodon birla ulfat bo`lub,
Bag`rim kuyub, g`amdin tuyub, o`ldim mano.
Uning "Dono topmay, yer ostig`a kirdim, ma`no", deyishi, har qalay,
asossiz bo`lmagan.Yusuf Emro:

"Meni menda dema,menda emasman,
Bir men border menda-mening ichimda",-
deydi. Bunday qaraSh Yassaviy uchun ham xos edi. U ana Shu "Men"ning
haqiqatlariga ishonadi.

Uningcha, bu "Men"da bitta buyuk mafkura bor. Shu ishq uning qalbida
butun dunyo va koinot sirlarini markazlaShtirishga qodir. Demak, u kamolot ishq,
u insonni xudo darajasiga yetkazadi. Bu "Men"ning fikru xulosalari taxminan
quyidagicha:

Olloh dedim, Shayton mendan yiroq qochdi,
Hoyi havas moumonlik turmay ko`chdi.

Ushbu mantiq IX asrda yaShab o`tgan buyuk so`fiy Bayazit Bistomiy aytgan
"Ilon po`st taShlaganday, men o`zimdan kechdim...", fikrlariga uyg'un keladi.
Xo`Sh, ilon nega po`st taShlaydi? U Shunday qilmasa o`larkan. Mistik tafakkur
ham o`zlikdan kechishni o`lishmas, yangicha tiriklik, ideal hayot yuksakliklariga
ko`tarilish deb baholaydi. Ha, "Olloh"demakdan asosiy murod gunoh va
yomonliklarga rag`batlantiruvchi "Shayton"-din qutilish .Manmanlik, kaltabinlik,
kibr, "hoyi havas" hislarini tup ildizlari bilan sug`urib taShlaSh.

Mansur Xalloy insonnig ilohiyligini Sharaflab: "Anal Haq"-
"Men-xudoman" degani uchun musulmon hukmronlari tomonidan Shakkoklikda ayblanib qatl
etilgani ma`lim. Yassaviyning hukmicha, nodon va johillargina "Anal Haq"ning
ma`nosini bilmaydilar.

"Anal-Haq"ni ma`nosini bilmas nodon,
Dono kerak, bu yo`llarda poki mardon...
Chunki "Shoh Mansurni "Anal Haq"i bejo emas",
"Yo`lni topqon, bizga o`xShaSh gumroh emas", deydi Shoir.
Bu-Yassaviy gumanizmining umo`minsoniy jihatlaridandir.

Ma`lumki, IX asrda tasavvufda malomatiyya mazhabi yuzaga kelgan. Bu
mazhabning markazi Nishopur bo`lgan. E.E.Bertels malomatiyya mazhabiga

mansub kishilar uchun o'z-o'zini komillaShtirish, yurakni poklaSh boSh vazifasi hisoblanganligini yozgan. Lekin bu ish mutlaqo Shaxsiy harakat tarzida atrofdaqilardan yaShirin ko'z –ko'z qilinmasdan amalga oShirilishi Shart bo'lgan. Sodda qilib aytrilganda, malomatiyya-bu insonning o'z-o'zini tahlildan o'tkazish, tahlil etgan sayin qusuri nuqsonlar uchun o'zni ayamaslik va ularni malomat tilida foSh qilmoq yo'lidir.

Bu yo'lda odam barcha yomon hislatlarini sira yaShirmasdan oShkor qilavergan. Ammo buning aksi o'laroq, u yaxshi fazilatlarini qat'iyat bilan pinhon saqlagan. O'zgalarning yolg'onu riyokorligidan so'z ochish oson. Biroq o'zingdagi qalloblik va riyoning pardalarini yirtish matonatli ishdir. Malomatiyyachilar mana Shunday matonat uchun kuraShganlar.

Ahmad Yassaviy ham mazkur mazhabning namoyandalaridan edi. Shuning uchun u hikmatlarida malomatiyya qonun-qoidalarini asosida fikr yuritib, odam o'z-o'ziga tanqidiy nazar bilan qaraShga da'vat qilgandir. Din gunohni qoralaydi. Ammo gunohlariga iqrorklikni to'la yoqlaydi. Chunki tavba-tazarru-tozalanish demak. Lekin gunohkorlik-faqat ayb va aybdorligigingga iqrorklik deganigina emas, asosiy mohiyatini bilish, Haiqiqatning muqaddas eShigiga kalit solish hamdir, aks holda Sharh Pegi "Gunohkor xristionlkning qalbini tushunadi... Hech kim xristianlikni gunohkor qadar anglay olmaydi...", deb ta'kidlamagan bo'lurdi. Gunoh h'issiyotlari Ahmad Yassaviy hikmatlarida dinning dilini teran anglaSh istaklari bilan ham chatishib ketgandir⁴.

Endi ikkinchi ovoz haqida. U boShqa bir yuksak mohiyatni ochadigan ilohiy ovoz. Inson hayoti nechog'lik o'tkinch, kulfat va maShaqqatlarga to'la bo'lmasin, u komillikka intilishi Shart. Kamolot yo'liga tuShgan insonni Vijdon ruhiy og'riqlarga giriftor etib, alamga yuzma-yuz qilib qo'yadi, yurakni gunoh va qo'rquv, Shubha va ishonch oralab o'tadi. Uyg'oq Vijdon eng oxirgi chegaralargacha odamni yolg'izlantiradi. Shundan boShlab o'lim chekinadi. Abadiyatga chinakam ishonch Shundan boShlab to'g'iladi. Bu Vijdonning axloq bilan aloqasi yo'q. Qonun-qoidalardan yiroq. U erkin ruh bilan yaShaSh sirlarini ochadi, aqliy toliqishlarni yengib, mutelik zanjirlarini sindiradi. Bu vijdon eng noiloj, eng kulfatli vaziyatlarda ham yo'lsizlikdan xalos etadi. Buni Shaxsning o'z Vijdoniga borish yo'li deb atasato'g'ri bo'ladi. Shu yo'lni topgan odamgina xudo tomonga talpinadi. Talpingan sayin esa o'ziga nisbatan murosasizliklari ortadi. Ahmad Yassaviyda ana Shunday. Buni u "haqiqatni daryosidin" kechish deb ham xarakterlangan:

"Haqiqatni daryosidin kechg'on kishi
O'zi munlug', ko'ngli sinuq, ko'zda yoshi.
Xorliq, zorliq, maShaqqatdur doim ishi,
Diydorini talab qilib topar, do'stlar"⁵.

Yassaviy "Haq taollo bo'yin olg'on munda turmas", "OShiq bo'lsang ishq yo'lida fano bo'lg'il, Diydor izlab, hasratida ado bo'lg'il" singari satrlarida o'lim uchun "o'lgan" kishilarning ilohiy-falsafiy qaraShlarini ifodalagan bo'li,

⁴ Ahmad Yassaviy. Hikmatlar. Nashrga tayyorlobchi I.Haqqul. T., G'ofur G'ulom nomidagi nashriyot. 1990, 20-b

⁵ Ahmad Yassaviy. Hikmatlar. Nashrga tayyorlobchi I.Haqqul. T., G'ofur G'ulom nomidagi nashriyot. 1990, 21-b

o'Imaslikning sirini o'zlaricha kaShf etgan zotlar Shulardir. Xorlik, zorlik va maShaqqatlar girdobiga taShlaydigan bir g'ussalarini ular yuzlab quvonchga almaShtirmaydilar. Buning tub sabablarini xolis tushunishga urinish kerak. Gap Shundaki, Yassaviyning g'oyaviy-badiiy an'analari o'Sha zamonlardayoq qotib yo to'xtab qolmagan, u yoki bu Shakllarda davom qilgan. Navoiy, MaShrab, Maxtumquli yoki boShqa Shoirlar ijodiyotida Yassaviy an'analarining ta'sir samaralari mavjudligini qanday inkor etish mumkin? Maxtumquli "Ko'rdingmi" deb nomlangan She'rida "Yo, iqlim egasi Ahmad Yassaviy, Mening sohibjamolimni ko'rdingmi?! "-deydi. Bu savol-murojaat ikki buyuk san'atkor dunyoqaraShidagi yaqinlik, g'oyaviy an'ana va ta'sir samaralarini ochadigan falsaviy, axloqiy, estetik nuqtai nazarlardagi uyg'unlikdan dalolat beradi. Chindan ham Maxtumqulining ayrim She'rlari, o'nlab satrlarining to'g'ilishida Yassaviy hikmatlarining ta'siri Shundoq sezilib turadi. "Nafsim meni ko'p yugurtti haqqa boqmay", deydi Yassaviy. Shu mohiyat Maxtumqulida "Yoronlar, yo'ldoSh bo'ldum nafsi havo zolinga", tarzida ifodalangan. Yoxud uning "ba ishlarga boy bo'ldim, xayr ishag gado bo'ldim", degan fikrlari Yassaviyda ko'p marotaba deyarli aynan uchraydi. Bundan taShqari, dunyo She'riyatida Yassaviy tajribalari alohida hodisamas-ku! Arman Shoiri Griogor Narekatsining "Musibatnoma"si, Yunus Emroning devoni umumiy ruhi vaboSh p fosi bilan Yassaviy tajribalaridan aytarli farqlanmaydi. Qoleversa, Yassaviy Yunus Emroning ulug' safasi.

Haqdin manga nazar bo'ldi.

Haq eShigin ochar bo'ldim.

Kirdim haqning g'aznasina,

Durru gavhar sochar bo'ldim,-

deydi Yunus Emro. Axir Yassaviy ham ayni Shu ehtiyoj va maqsad bilan hikmatlar aytganmi? "Toliblarga durru gavhar sochtim mano",-degan Yassaviy turkiy She'riyatidagi Yunus Emroga o'xShaSh so'fiy Shoirlarga:

Haq yo'liga kirib bo'lmas pok bo'lmasang,

Lomakonda haqdin saboq oldim mano,-

degan saboq bo'larli fikrlarni bayon etgan.

Yassaviyda:

Tufrog bo'lg'il, olam sani bosib o'tsin

degan misra bor. Bu fikri uchun u qancha tanqidlarga uchragan. Nega odam "tog'" bo'lmasin, tuproqqa aylansin? U "olamning oyog'i ostida yanchilish uchun tug'ilmaydiku!

Yassaviy "tufrog' bo'lg'il" deganda katta maqsadni nazarda tutadi. Ma'lumki diniy tasavvurlar bo'yicha xudo dastlab to'rt unurni yaratgan, bular: o't, suv, yer, Shamol. U ta'limotga ko'ra dastlabki odamni tuproqdan yaratadilar. Tasavvuf falsafasiga ko'ra Shu to'rt unsurdan insonning to'rt xususiyati yuzaga kelgan emish. Tuproqdan sabr, umid, ezgu xulq va muruvvat, suvdan – quvonch, saxovat, nazokat, birlik, Shamoldan – yolg'on, ikkiyuzlamachilik, sabrsizlik, tantiqlik, olovdan – nafs, kibr, tama, hasad. Tasavvufda tuproq va suv jannat mulki hisoblanadi.

Demak Yassaviyning fikricha tuproq ila o'zini teng tutish bu buyuklik, xoksorlik, kibr va manmanlikdan poklanishdir.

Ikkinchi tomondan tuproq- bu Vatan. Tuproq necha yuz yillardan buyon ne-ne ulug' farzandlarni quchog'iga bosib kelayotgan muShfiq Zamin. Shuning uchun biz uni e'zozlab ona tuproq deymiz. U olis ajdodlarga onalik qilgan. U ota-bobolarimizning onasi bo'lgan. U bizning onamiz. Va kelajak nasllarning onasi bo'lajak. Turk Shoiri OShiq Vaysal Shunday yozadi:

Havoga boqsam men havo olarman,
Tuproqqa boqsam men duo olarman.
Tuproqdan ayrilsam qayda qolarman,
Mening sodiq yorim qaro tuproqdir.

Ha, haqning "nihon xazinasi" tuproqda. Tuproq "duo"si – Vatan duosi.

Ibrohim Haqqulov ta'kidlaganidek: " O'zbek adabiyotida Vatan haqidagi falsafiy fikrlar Ahmad Yassaviy hikmatlaridan boShlanadi"⁶.

Yassaviy deydi: BoShim tufroq, o'zim tufroq, jismim tufroq,
Haq vasliga yetarman deb ruhim muShtoq.

Bu bilan Yassaviy insonni ulug'lika chorlaydi. Chunonchi, odam Vatan bilan birlikka erishsa, u nafaqat o'z elining, balki olamning ehtiromiga sazovor bo'ladi. Bunday kishilarni el tushunadi, dunyo taniydi. Bunday qudratli zotlarni olam ham yengib, bosib o'tolmaydi.

Insonni ma'naviy, axloqiy jihatdan bezaydigan ajoyib fazilatlardan biri - halol, pokiza yaShaSh, birovlarning haqiga zarracha bo'lsada xiyonat qilmaslikdan iboratdir. "Turkiston mulkining Shayxul maShoyixi" Hoja Ahmad Yassaviy e'tiqodicha, "Xaq yo'liga kirib bo'lmas pok bo'lmasdan".

Halol bilan haromni farqlaSh, faqat o'z mehnati evaziga tirikchilik qilish, harom -harishdan jirkanish, haromxurlikni eng katta gunohi azim va ahloqsizlik deb bilish - bular Sharq faylasuflarining eng muhim g'oyalaridan bo'lib hisoblanadi. Sharqning buyuk faylasuflari, birinchi navbatda diniy al-lomalar, Shayxlar, sufiylar halol yeb ichib, pokiza yaShaShni targ'ibot, taShviqot etibgina qolmasdan, bu masalada o'zlari Shaxsan namuna ham bo'lganlar. Ilmiy va diniy allomalar harom taomni yoqtirmaganlar, ko'plari hatto Shoxu amirlarning tuhfasini ham qabul qilmaganlar va boy-amaldorlarning mol-mulkini harom deb e'lon qilganlar. Qo'lidan ish keladigan har bir olimu-fuzalo, sufiyu-Shayx foydali mehnat bilan Shug'ullangan, faqat o'z mehnati bilan topilgan nonni halol deb bilishgan. Masalan, Ahmad Yassaviy dehqon bo'lgan, Shayx Ibrohim Ozariy g'isht teruvchi, Shayx Bannon hammollik qilgan, Shayx Abulhasan duradgorlik bilan Shug'ullangan, Bahovuddin NaqShband kimxobga gul naqShlagan, Bahovuddinning piri Sayd Kulol kulolchilik qilgan va paxsa urgan. Shayxlar va ulamolar atrofidagi darveShlar, Shogirdu muridlar ham birgalaShib qurg'on qurganlar, vaqf yerlarni ishlaganlar, bog'dorchilik, chuponlik bilan Shug'ullanganlar. Ularning hammasi tasavvuf falsafasining "luqmai halol" qoidasiga qat'iy amal qilganlar.

⁶ Ahmad Yassaviy. Hikmatlar. Nashrga tayyorlovchi I.Haqqul. T., G'ofur G'ulom nomidagi nashriyot. 1990, 38-b

Bu qadimiy zaminimizda yaShab o'tgan insonlar elsuyar, haqgo'y, diyonatli..., xullas, ruhiy barkamol ruhoniyy zot bo'lib, uning haqiqiy ziyolilarini, ayniqsa, qalam ahlini ruhoniyyatsiz tasavvur etib bo'lmaydi. Shu boisdan ham, deylik, Ahmad Yassaviydan to Abdulhamid Cho'lponga qadar jamiki ulug' mutafakkirlarimiz oddiygina Shoir emas, ayni chog'da xoja, nasriddin, nizomiddin, farididdin, sirojiddin, sadriddin, so'fizoda, xo'ja, qori, Shayxzoda..., xullas, ruhoniyy hamdir. Adabiyotimiz tarixida biron-bir Shoir va yo nosir yo'qki, u odam bolasining fe'l-atvori, ko'ngil mulki, dil dardi, qalb kechinmalari, xususan, o'z zamondoShlari ruhiyatida ro'y berayotgan evrilishlar, ma'naviy qaShShoqlaShuvlar va tubanlaShuvlar xususida iztirob-hayajon bilan yozmagan bo'lsin. Ahmad Yassaviy bundan qariyb to'qqiz yuz yil avval bitgan quyidagi hikmatli satrlar Shu qadar zamonaviy jaranglaydiki, oradan to'qqiz asr emas, to'qqiz kun ham o'tmagandek:

Na onoda mehr qoldi, na otoda,
Og`a-ini bir-birig`a mojaroda,
Musulmonlig` da'vo qilur, ichur boda,
Mastlig` bilan qarindoShdin tondi, ko`ring!

Jiddiyroq o'ylab qarang, mazkur satrlar bitilgan chog'larda, deylik, "abort", "tirik yetim", "yetimxona", "qariyalar uyi" kabi tushunchalar, hattoki bular xususidagi tasavvurlar ham yo'q edi! O'tgan to'qqiz asr mobaynida odam bolasining qalbidagi mehr-muhabbat hissi kuchaydimi-susaydimi, kim biladi, lekin o'z zamondoShlari qalbidagi bemehrlikdan afsus-nadomatlar chekib ozmuncha Shoh satrlar va Shoh asarlar bitilmagan. "Mehr ko'p ko'rguzdim, ammo mehribone topmadim" deb yozgan edi Alisher Navoiy. "BoShimni silaShga bir mehribon qo'l, bir og`iz Shirin so'z nondek arzanda, Men odam edim-ku, inson farzandi" deya bo'zlagan edi G`afur G`ulom... Shoh satrlardan Shoh asarlarga o'tsak, yana G`afur G`ulomning maShhur "Shum bola" asari, Oybekning "Bolalik" va Abdulla Qahhorning "O'tmishdan ertaklar" qissalari ota-ona, qavm-qarindoShdagina emas, umuman, el-ulus va tuzum-jamiyatda bemehrlik-beShafqatlik kuchaygani, yetimlik va ruhiy qashshoqlik fojialari ta'sirchan qalamga olingan. Xudoga Shukur, mustaqilligimizning Sharofati bilan asriy orzu-armonlarimiz uShalib, deylik, yetimxonalar "mehribonlik uylari" deya Shunchaki xo'ja ko'rsinga chiroyli nomlanayotgani yo'q, aslida ham Shunday mohiyat kasb etib, chinakam mehr-muruvvat maskaniga aylanib bormoqda. Sho'ro tuzumi davrida odam bolasining bir-biriga qahr-g`azab va nafrat ko'zi bilan qaraShi atayin avj oldirilgan bo'lsa, endilikda, aksincha, har bir maktab, oila, mahalla, qo'ying-chi, butun jamiyatimizda mehr-muruvvat, mehr-Shafqat, mehr-oqibat va mehr-muhabbat o'zaro insoniy munosabatlarning yetakchi tamoyili tusini olmoqda. O'z bolaligini mustaqillik Sharoitida kechirayotgan hozirgi avlodga har qancha havas qilsak arziydi. Bu avlod ham aqlan, ham jismonan, ham ruhan – har jihatdan, darhaqiqat, sog'lom avlod, ota-ona mehri, ustoz-murabbiy mehri, el-yurt mehri, umuman, mehrga qonib ulg`ayayotgan barkamol avlod.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR.

1. Axmad Yassaviy. Ibroxim Haqqul. – T.: Gafur Gulom nashriyoti, 2001 yil.
2. Al-Buxoriy. Hadis, Al-jome` as-sahih. -T.: “Qomuslar” bosh tahririyati, 1991-1992 yillar , 1- 4-kitoblar.
3. N. Komilov. Tasavvuf. -T.: «Yozuvchi», 1996 y
4. N.Komilov. «Komil inson haqida 4 risola». -T.: «Ma’naviyat»,1997 y.
5. Kubro Shayx Najmiddin. Jamoling menga bas: Ruboiylar /Forsiydan Matnazar Abdulxakim tarj.-T.: Adabiyot va san’at nashriyoti, 1994.-64 b.
- 6.Pardayeva, K., Tangirov, A., & Muxammadiyeva, S. (2020). The Use Of The Humanistic Ideas Of Khoja Ahmad Yassavi In The Teaching Of Pedagogical Sciences. *Архив Научных Публикаций JSPI*.
- 7.Muxammadiyeva, S., & Farsaxonova, D. (2020). PEDAGOGY OF EASTERN THINKERS THE ISSUE OF ETHICAL EDUCATION IN THEIR VIEWS. *Архив Научных Публикаций JSPI*.